



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	

TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Ergashev Qobiljon Ernazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Bojxona instituti "Bojxona nazorati" kafedrası dotsenti
ORCID: 0009-0005-9940-7939

Annotatsiya. Turizm salohiyatini rivojlantirishda bojxona xizmatlarini raqamlashtirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Jahon va mahalliy olimlarning **“turizm salohiyati”** hamda **“bojxona xizmatlari”** tushunchalariga oid yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, mavjud ilmiy bo'shliqlar aniqlangan. Tadqiqotda tizimli, institutsional, raqamlashtirish va xavflarni boshqarishga asoslangan yondashuvlar, shuningdek, tranzaksion xarajatlar nazariyasi hamda gravitatsion ekonometrik modellardan foydalanilgan. Olingan natijalar asosida davlat tomonidan tartibga solish, xavflarni masofadan profillash va raqamli texnologiyalar integratsiyasini qamrab oluvchi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm salohiyati, bojxona xizmatlari, raqamlashtirish, tranzaksion xarajatlar, xavflarni boshqarish tizimi, “yashil yo'lak”, API/PNR, yagona darcha, SAFE standartlari.

Аннотация. Исследованы теоретико-методологические основы цифровизации таможенных услуг в развитии туристского потенциала. Проведён сравнительный анализ подходов зарубежных и отечественных учёных к понятиям **«туристский потенциал»** и **«таможенные услуги»**, выявлены существующие научные пробелы. В исследовании использованы системный, институциональный, цифровой и риск-ориентированный подходы, а также теория транзакционных издержек и гравитационные эконометрические модели. По результатам анализа предложено авторское определение, охватывающее государственное регулирование, дистанционное профилирование рисков и интеграцию цифровых технологий.

Ключевые слова: туристский потенциал, таможенные услуги, цифровизация, транзакционные издержки, система управления рисками, «зелёный коридор», API/PNR, единое окно, стандарты SAFE.

Abstract. The theoretical and methodological foundations of digitalizing customs services for the development of tourism potential are examined. A comparative analysis of the approaches proposed by international and domestic scholars to the concepts of **“tourism potential”** and **“customs services”** is conducted, and existing research gaps are identified. The study applies systemic, institutional, digitalization, and risk-based approaches, together with transaction cost theory and gravity econometric models. Based on the findings, an original authorial definition is proposed that incorporates government regulation, remote risk profiling, and the integration of digital technologies.

Keywords: tourism potential, customs services, digitalization, transaction costs, risk management system, green channel, API/PNR, single window, SAFE Framework.



KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro turizm yalpi ichki mahsulotning eng tez tiklanuvchi hamda eng yuqori multiplikativ samaraga ega tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon Iqtisodiy Forumining hisobotlariga ko'ra, **2025-yilda** global xalqaro sayyohlik tashriflari soni 1,52 milliard nafarga yetdi va ushbu o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omillari sifatida bojxona xizmatlarining raqamlashtirilishi, viza tartib-taomillarining soddalashtirilishi hamda havo transporti xizmatlari sifatining oshirilgani qayd etilgan [1]. Ayni paytda xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, chegara rasmiylashtiruvchi jarayonlarining murakkabligi sayyohlik xizmatlari tannarxining sezilarli qismini tashkil etadi.

Jahon bojxona tashkilotining **2025–2028-yillarga** mo'ljallangan Strategik rejasida "ma'lumotlarga asoslangan bojxona xizmatlari" tizimiga o'tish orqali turistik va savdo oqimlarini jadallashtirish asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2]. Yevropa Ittifoqining **2025-yil oktabr oyida** to'liq ishga tushirilgan "Raqamli chegara" (Entry/Exit System) tizimi ham ayni shu maqsadga — sayohatni barcha uchun yanada qulay va xavfsiz qilishga qaratilgan. Ushbu jarayonlar bojxona nazoratining "jismoniy to'siq" paradigmasidan "raqamli xizmat" paradigmasiga bosqichma-bosqich o'tayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Turizm salohiyati" va "bojxona xizmati" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ushbu bog'liqlikni o'rganish tarixan uchta ketma-ket paradigma asosida rivojlangan: chegara "to'siq" sifatida, chegara "tranzit yo'lak" sifatida hamda chegara "jozibadorlik markazi" sifatida.

Dallen Timoti chegarani sayyohlar uchun tranzaksion xarajatlarni oshiruvchi asosiy omil sifatida ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, bojxona postlaridagi qat'iy tekshiruvlar va viza olish jarayonidagi murakkabliklar sayyohlarda psixologik hamda moliyaviy xarajatlarni oshirib, turistik talab elastikligini sezilarli darajada pasaytiradi [4]. X. Van Xoutum va uning hammualliflari globallashtirish sharoitida chegaraning "demateriallashuvi" konsepsiyasini ilgari surib, bojxona chegarasining jismoniy to'siqdan yuridik-raqamli tushunchaga aylanishini asoslaydilar [5]. A. Gelbman esa eng zamonaviy yondashuvni taklif etib, chegaraning o'zi turistik jozibadorlik obyektiga aylanishi mumkinligini asoslaydi [6].

Adabiyotlar tahlili quyidagi ilmiy jihatlarini aniqlash imkonini berdi: birinchidan, mavjud ta'riflarda bojxona xizmati asosan fiskal-nazorat funksiyasi doirasida talqin qilinib, uning turistik oqimni tezlashtiruvchi iqtisodiy katalizator sifatidagi roli yetarli darajada yoritilmagan; ikkinchidan, xavflarni masofadan profillash omili konseptual apparat tarkibida yetarli darajada aks ettirilmagan; uchinchidan, sun'iy intellekt va biometrik identifikatsiya texnologiyalarining institutsional o'rni nazariy jihatdan yetarlicha asoslanmagan; to'rtinchidan, turizm salohiyati va bojxona xizmatlari o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy baholashga xizmat qiluvchi milliy metodikaning shakllanishi istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, institutsional, raqamlashtirish hamda xavflarni boshqarishga asoslangan yondashuvlar majmuidan foydalanilgan. Miqdoriy tahlilni amalga oshirishda tranzaksion xarajatlar nazariyasi, Keyns multiplikatori hamda gravitatsion ekonometrik modellardan foydalanilgan. Axborot bazasi sifatida Jahon bojxona tashkiloti, BMT Jahon Turizm Tashkiloti, Jahon Iqtisodiy Forumi, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Bojxona qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmda bojxona xizmatlari tizimining tarkibiy elementlari. Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan turizm salohiyatini rivojlantirishda bojxona xizmatlari tizimi quyidagi o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan deb qarash mumkin: yo'lovchilar (sayyohlar) oqimi; axborot oqimi (API/PNR, elektron viza, elektron deklaratsiya); moliyaviy oqim (bojxona yig'implari, Tax-Free va Duty-Free tranzaksiyalari); xavflarni identifikatsiya qilish va profillash jarayonlari; chegara infratuzilmasi hamda raqamli platformalar.

Ushbu elementlarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birortasidagi samarasizlik butun tizimning o'tkazish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tranzaksion xarajatlar va multiplikator modeli. Neoinstitutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, sayyohning chegarada o'tkazgan vaqti turistik xizmat tannarxini oshiruvchi "yashirin soliq" hisoblanadi. Bojxona jarayonlari soddalashtirilganda mintaqaga kiruvchi turistik kapital hajmi ortadi va bu multiplikativ o'sishni ta'minlaydi (1):



$$\Delta Y = k \cdot \Delta E \quad (1)$$

bu yerda: ΔY — mintaqaviy daromadning umumiy o'sishi; ΔE — bo'xona jarayonlarining soddalashtirilishi natijasida turistlarning qo'shimcha sarf-xarajatlari; k — turistik multiplikator koeffitsiyenti. Multiplikator quyidagicha hisoblanadi (2):

$$k = 1 / (1 - MPC + MPM) \quad (2)$$

bu yerda MPC — iste'molga bo'lgan marjinal moyillik; MPM — importga bo'lgan marjinal moyillik. Jahon Sayohat va Turizm Kengashi hisob-kitoblari ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda turistik multiplikator $k = 1,5-2,5$ oralig'ida tebranadi [18].

Ekonometrik model. Bo'xona to'siqlari va turistik oqim o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy baholash uchun ko'p omilli logarifmik regressiya modelidan foydalanish maqsadga muvofiqdir (3):

$$\ln(TA_t) = \beta_0 + \beta_1 \ln(VOI_t) - \beta_2 \ln(CCT_t) + \beta_3 \ln(EX_t) + \varepsilon_t \quad (3)$$

bu yerda: TA_t — t davrida mamlakatga kirib kelgan turistlar soni; VOI_t — viza ochiqligi indeksi; CCT_t — chegara bo'xona postlarida o'rtacha rasmiylashtiruv vaqti (daqqa); EX_t — ekzogen iqtisodiy omillar; ε_t — qoldiq. Modeldagi β_2 koeffitsiyenti oldidagi manfiy ishora bo'xona rasmiylashtiruv vaqtining qisqarishi turistik oqimning elastiklik koeffitsiyenti miqdorida o'sishini kafolatlashini bildiradi.

Mavjud ta'riflarning umumiy tahlili va kamchiliklari. O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Umumiy jihatlar quyidagilardan iborat: barcha ta'riflar bo'xona xizmatini davlat funksiyasi sifatida talqin qiladi; ko'pchilik ta'riflarda nazorat va tekshiruv jihatlariga urg'u beriladi; zamonaviy ta'riflarga raqamli texnologiyalarni qisman hisobga oladi. Kamchiliklar va bo'shliqlar esa quyidagilardan iborat: turizm salohiyati bilan integratsiyaning yetarli darajada yoritilmaganligi; xizmat ko'rsatish (servis) jihatining yetarli aks ettirilmaganligi; tranzaksion vaqt omilining konseptual apparatga kiritilmaganligi; xavflarni oldindan (masofadan) profilash tamoyilining yetarli darajada yoritilmaganligi; sun'iy intellekt va biometrik identifikatsiyaning nazariy jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi.

Xalqaro standartlarning O'zbekistonda joriy etilish darajasi. Turizm bo'xona xizmatlarini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy me'yorlar va ularning milliy amaliyotdagi holati 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Turizm bo'xona xizmatlariga oid xalqaro standartlar va ularning O'zbekistonda joriy etilish darajasi¹

Standart / hujjat	Asosiy talab	Kutilayotgan samara	Joriy etilish darajasi
Yangilangan Kioto konvensiyasi, Maxsus "J" ilovasi	Ikki yo'lakli tizim, og'zaki deklaratsiyalash, de minimis me'yorlari	Rasmiylashtiruv vaqtining qisqarishi	Qisman
ICAO 9-ilovasi (Annex 9)	Aeroportda nazorat vaqtining 45 daqiqadan oshmasligi	O'tkazish qobiliyatining oshishi	To'liq
WCO SAFE standartlari tizimi	Xavflarni avtomatlashtirilgan profilash, tanlovchanlik tamoyili	Jismoniy ko'rik ulushining 3–5 % gacha qisqarishi	Qisman
API/PNR (WCO–IATA–ICAO)	Yo'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni parvozdan oldin uzatish	O'tkazish qobiliyatining 30–40 % ga oshishi	Boshlang'ich
UN/CEFACT 33-tavsiyasi	"Bir marta taqdim etish" — yagona darcha	Tranzaksion vaqtning 70–80 % ga qisqarishi	Boshlang'ich
ICAO Doc 9303 va e-Gates	Biometrik identifikatsiya, elektron darvozalar	O'tish vaqtining 12–20 soniyagacha qisqarishi	Boshlang'ich
Istanbul konvensiyasi (ATA karneti)	Vaqtincha olib kirishning xalqaro kafolati	Avtoturizm oqimining o'sishi	To'liq

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xalqaro standartlarning huquqiy ratifikatsiyasi asosan yakunlangan bo'lsa-da, ularni texnologik jihatdan joriy etish, xususan, API/PNR hamda yagona darcha mexanizmlari bo'yicha rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Institutsional liberallashtiruvning statistik natijalari. O'zbekistonda **2018-yil 1-yanvardan** xalqaro aeroportlarda "yashil" va "qizil" yo'laklar tizimi joriy etildi. Amaliy ma'lumotlarga ko'ra, mazkur tizim sayyohlarning Toshkent xalqaro aeroportida bo'xona nazoratidan o'tish vaqtini o'rtacha 45 daqiqadan 10–15 daqiqagacha, ya'ni qariyb 70 foizga qisqartirdi. Bugungi kunda havo yo'llari orqali kirib kelayotgan xorijiy sayyohlarning

1 Muallif ishlanmasi



qariyb 95 foizi hech qanday yozma deklaratsiyasiz “yashil yo‘lak” orqali harakatlanmoqda. Mazkur institutsional o‘zgarishlarning makroiqtisodiy natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
O‘zbekistonda bojxona-viza tartiblari liberallasuvi va turizm ko‘rsatkichlari dinamikasi²

Yil	Xorijiy sayyohlar soni, mln nafar	Turizm xizmatlari eksporti, mlrd AQSH doll.	Vizasiz rejim joriy etilgan davlatlar	Bojxonadan o‘tish vaqti, daqiqa
2017	2,69	0,55	9	45–60
2018	5,30	1,04	45	15–20
2019	6,70	1,31	86	15–20
2023	6,60	2,14	90	10–15
2024	8,00	3,52	92	10–15
2025	11,00 dan ortiq	4,80	94	10–15

2-jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bojxona rasmiylashtiruv vaqtining **2017-yildagi** 45–60 daqiqadan **2025-yilda** 10–15 daqiqagacha qisqarishi bilan bir vaqtda xorijiy sayyohlar soni 4,1 barobar, turizm xizmatlari eksporti esa 8,7 barobar oshgan. Bu (3)-modeldagi β_2 koeffitsiyentining yuqori qiymatga ega ekanligini bilvosita tasdiqlaydi. Ayni paytda turizm xizmatlari eksportining sayyohlar soniga nisbatan sezilarli darajada tez sur’atlarda o‘shishi bir sayyohga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajat hajmi ortganini, ya’ni bojxona tartib-taomillarini liberallashtirish nafaqat miqdoriy, balki sifat ko‘rsatkichlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

Multiplikativ samarani baholash. Jahon Sayohat va Turizm Kengashining iqtisodiy modellari ga ko‘ra, turizm sektoriga sarflangan har bir 1 AQSH dollari iqtisodiyotda qo‘shimcha 2,5–3,2 AQSH dollari miqdoridagi bilvosita va qo‘zg‘atilgan talabni yuzaga keltiradi [8]. Agar bojxona infratuzilmasini “to‘siqsiz” holatga keltirish orqali O‘zbekiston qo‘shimcha 1 million nafar sayyohni jalb qilsa va ularning har biri o‘rtacha 400 AQSH dollari sarflasa, bu 400 mln AQSH dollari miqdoridagi to‘g‘ridan to‘g‘ri eksportni anglatadi. O‘rtacha 2,8 koeffitsiyent qo‘llanilganda (1)-formulaga muvofiq:

$$\Delta Y = 2,8 \cdot 400 \text{ mln} = 1120 \text{ mln USD} \quad (4)$$

Demak, bojxona to‘siqlarining bartaraf etilishi O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotiga real hisobda 1,12 milliard AQSH dollari miqdorida multiplikativ qiymat qo‘shishi mumkin. Mazkur ko‘rsatkich bojxona xizmatlarini raqamlashtirishga yo‘naltiriladigan kapital xarajatlarning qisqa muddatda qoplanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Istiqbol prognozi. Mavjud statistik ma’lumotlar hamda kutilayotgan institutsional islohotlar samarasi asosida **2030-yilgacha** bo‘lgan davr uchun ikkita ssenariyni ajratish mumkin. **Bazaviy ssenariyga** ko‘ra, bojxona infratuzilmasi joriy holatda saqlanib qolsa, turizm xizmatlari eksporti yillik o‘rtacha 5–6 foizlik tabiiy o‘shish sur’atlari hisobiga **2030-yilga** borib 6,0–6,5 milliard AQSH dollarini tashkil etadi, chunki chegara infratuzilmasining mavjud sig‘imi bundan ortiq oqimni qabul qilish imkoniyatini cheklaydi. **Institutsional ssenariyga** ko‘ra esa API/PNR, turistlar uchun yagona darcha, elektron darvozalar hamda sun’iy intellektga asoslangan xavflarni profillash tizimlari to‘liq joriy etilganda, chegaraning o‘tkazish qobiliyati 2–3 barobar oshadi va turizm xizmatlari eksporti yillik 12–15 foizlik geometrik o‘shish trayektoriyasiga chiqib, **2030-yilda** 9,0–9,5 milliard AQSH dollari miqdoriga yetishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sharoitda bojxona xizmatlari turizm makroiqtisodiyotida “to‘siq” funksiyasidan kapital va odamlar oqimini tezlashtiruvchi “logistik ko‘prik” funksiyasiga o‘tib bormoqda. Taklif etilgan mualliflik ta’rifi ilmiy adabiyotlarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha mavjud yondashuvlarni to‘ldiradi hamda turizm salohiyati va bojxona xizmatlarini yagona integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi.

Turistlar uchun yagona raqamli darcha yaratish. UN/CEFACTning 33-tavsiyasi asosida “bir marta taqdim etish” tamoyilini joriy etib, sayyohning elektron viza, bojxona deklaratsiyasi, ekologik yig‘im va transport vositasiga oid ma’lumotlarni mamlakatga kelishidan oldin yagona platformaga kiritishini ta’minlash. Buning

2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm qo‘mitasi va BMT Jahon Turizm Tashkiloti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [3; 9].



uchun “Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida nazorat tartibotlarini integratsiyalash to‘g‘risida”gi yaxlit normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadga muvofiq.

API/PNR tizimining huquqiy asosini shakllantirish. ICAOning 45 daqiqalik standartiga barqaror erishish maqsadida aviakompaniyalar tomonidan yo‘lovchilar haqidagi ma‘lumotlarni bojxona organlariga uzatish tartibini belgilovchi maxsus qonun hujjatini qabul qilish. Unda uzatiladigan ma‘lumotlarning tarkibi, uzatish muddati, saqlash muddati hamda maxfiylik kafolatlari qat‘iy belgilanishi lozim.

Noinvaziv nazorat va sun‘iy intellektga o‘tish. Sayyohlarning yuklarini ularning ko‘z o‘ngida ochib tekshirish amaliyotini bosqichma-bosqich takomillashtirib, uning o‘rniga konveyerda ishlaydigan uch o‘lchamli tomografiya skanerlari va sun‘iy intellekt asosidagi avtomatik tahlil infratuzilmasini yaratish. Jismoniy ko‘rik ulushini WCO SAFE standartlariga muvofiq umumiy oqimning 3–5 foizigacha kamaytirish.

Bojxona kodeksiga sayyohlar maqomini kiritish. Yangilangan Kioto konvensiyasining Maxsus “J” ilovasi normalarini qonunosti hujjatlaridan kodeks darajasiga ko‘tarib, Bojxona kodeksiga “Sayyohlar va yo‘lovchilar uchun bojxona tartibotlarini soddalashtirish” nomli alohida bobni kiritish. Unda og‘zaki deklaratsiyalashning ustuvorligi qat‘iy norma sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish. Markaziy Osiyo davlatlari bilan “Silk Visa” yagona turistik makonini shakllantirish maqsadida, birinchi navbatda, Yevropa Ittifoqining EES tizimiga o‘xshash yagona biometrik qayd etish bazasini yaratish hamda qo‘shma nazorat-o‘tkazish punktlarini tashkil etish. Xalqaro tajriba bunday modellar chegarada kutish vaqtini 50 foizga, infratuzilmani saqlash xarajatlarini esa kamida 30 foizga qisqartirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Economic Forum. *Four Scenarios for the Future of Travel and Tourism*. – Geneva : WEF, 2025. – P. 8–14. – URL: <https://reports.weforum.org>
2. World Customs Organization. *Annual Report 2024–2025 and Three-Year Strategic Plan 2025–2028*. – Brussels : WCO, 2025. – P. 11–19. – URL: <https://www.wcoomd.org>
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. *2025-yil yakunlari bo‘yicha turizm sohasi ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, 2026. – URL: https://gov.uz/uz/activity_page/tourism
4. Timothy D. J. *Tourism and Political Boundaries*. – London : Routledge, 2001. – 219 p.
5. Van Houtum H., Naerssen T. Bordering, Ordering and Othering // *Tijdschrift voor Economische en Sociale Geografie*. – 2002. – Vol. 93, No. 2. – P. 125–136.
6. Gelbman A., Timothy D. J. Border Complexity, Tourism and International Exclaves // *Annals of Tourism Research*. – 2011. – Vol. 38, No. 1. – P. 110–131. – DOI: 10.1016/j.annals.2010.06.002.
7. Widdowson D. Managing Risk in the Customs Context // *Customs Scientific Journal*. – 2005. – Vol. 1, No. 1. – P. 91–105.
8. World Travel & Tourism Council. *Economic Impact Methodology*. – London : WTTC, 2023. – P. 9–21. – URL: <https://wttc.org>
9. UNWTO. *Tourism Visa Openness Report: Enhancing Seamless Travel*. – Madrid : World Tourism Organization, 2021. – P. 14–27.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>